CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS FOR THE PROTECTION OF THE RIGHTS OF FAMILIES, CHILDREN, AND YOUTH

Students of Group YU-8A, Jurisprudence Program, Faculty of Economics, Tashkent State University of Transport

Salimjonova Sevinch Ravil qizi

Student of Group YU-7, Jurisprudence Program, Faculty of Economics, Tashkent State University of Transport

Mirolimov Asadbek Alijon o‘g‘li

Scientific Supervisor: Karimova A.A.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the rights of the family, children, and youth enshrined in Chapter XIV of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The role of the family institution in society, the obligations between parents and children, the equality of children, the rights of young people, and state guarantees are examined from a scientific and theoretical perspective. The article also presents a comparative analysis of constitutional provisions concerning family and youth issues in the constitutions of foreign countries. Throughout the article, the strengths of the national legal framework, existing problems, and proposals for addressing them are identified and developed.

Keywords

Family, children’s rights, youth policy, constitutional guarantees, international law, parental obligations, social protection, comparative analysis.

OILA, BOLALAR VA YOSHLAR HUQUQLARINING KONSTITUTSIYAVIY-MUHOFAZA ASOSLARI

Toshkent davlat transport universiteti iqtisodiyot fakulteti yurisprudensiya yo‘nalishi YU-8A guruh talabasi Salimjonova Sevinch Ravil qizi

YU-7 guruh talabasi Mirolimov Asadbek Alijon o'g'li
Telefon raqami: +998-77-141-40-12 salimjonovasevinch0gmail.com
Telefon raqami +998-93-009-04-77 asadbekmirolimov39@gmail.com
Ilmiy rahbar Karimova A.A Telefon raqami +998-97-757-22-66

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobida mustahkamlangan oila, bolalar va yoshlar huquqlari keng yoritiladi. Oila institutining jamiyatdagi o‘rni, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi majburiyatlar, bolalarning tengligi, yoshlarning huquqlari va davlat kafolatlari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Shuningdek, chet davlatlar konstitutsiyalaridagi oila va yoshlar masalalariga oid normalar bilan qiyosiy tahlil olib boriladi. Maqola davomida milliy huquqiy tajribaning ustun jihatlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Oila, bolalar huquqlari, yoshlar siyosati, konstitutsiyaviy kafolat, xalqaro huquq, ota-onalar majburiyati, ijtimoiy himoya, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещаются права семьи, детей и молодежи, закрепленные в XIV главе Конституции Республики Узбекистан. С научно-теоретической точки зрения анализируются роль института семьи в обществе, обязанности родителей и детей, равенство детей, права молодежи и государственные гарантии их обеспечения. Также проводится сравнительный анализ норм конституций зарубежных государств, касающихся вопросов семьи и молодежи. В статье рассматриваются преимущества национального правового опыта, существующие проблемы, а также разрабатываются предложения по их устранению.

Ключевые слова: Семья, права детей, молодежная политика, конституционные гарантии, международное право, обязанности родителей, социальная защита, сравнительный анализ.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan buyon demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilib, davlatning barcha faoliyati shu qadriyatlarga bo‘ysundirilishi alohida ta’kidlandi.

Konstitutsiyaning 13-moddasida: *“Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadi. Davlatning eng oliy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdir”* deb belgilangan. Ushbu norma davlatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy hayotida inson manfaatlari markaziy o‘rinda turishini anglatadi. Shu boisdan ham sud-huquq tizimini isloh qilish, inson manfaatlarini yanada to‘liq himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yaratish dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Oila, bolalar va yoshlar huquqlarining konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Insoniyat tarixida oila doimo jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini, lekin eng muhim ijtimoiy institut sifatida shakllanib kelgan. Zero, oilasiz jamiyat bo‘lishi mumkin emas va jamiyat taraqqiyotini ham oilasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi bevosita oila, bolalar va yoshlar huquqlarini muhofaza qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlod tarbiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. Konstitutsiyada oilaga davlat va jamiyat tomonidan alohida e’tibor berilishi, yoshlarning intellektual va ma’naviy rivoji, bolalarning to‘laqonli kamol topishi masalalarining bevosita kafolatlanishi milliy huquq tizimining insonparvarlik ruhiga singib ketganligini yaqqol ko‘rsatadi. Oila institutining jamiyat hayotidagi o‘rni shundaki, unda insonning shaxsiyati shakllanadi, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, axloqiy qarashlar, urf-odatlar va an’analar avloddan-avlodga o‘tadi. Shu bois, Konstitutsiyada oilaning jamiyatning asosiy bo‘g‘ini

sifatida e’tirof etilishi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, ma’naviy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Oila insonning eng birlamchi maktabi, uning vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, sadoqat, hurmat va ehtirom kabi fazilatlarni o‘zlashtirish maskani hisoblanadi. Shu ma’noda, davlat tomonidan oilaning huquqiy muhofaza qilinishi — bu kelajak avlodni huquqiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashning kafolatidir.

Konstitutsiyaning ushbu bobida belgilangan normalar BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi universal xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg‘unlikda shakllantirilgan. Masalan, BMTning 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo‘g‘ini ekani, u jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishi lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyada bolalarning yashash, rivojlanish, ta’lim olish, sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lish huquqlari belgilangan bo‘lib, bu normalar O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi qoidalarning xalqaro standartlar bilan bevosita uyg‘unligini tasdiqlaydi. Demak, Konstitutsiyamizda oila, bolalar va yoshlar huquqlariga oid normalarning mavjudligi xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishining amaliy ifodasidir.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar siyosati, oila institutini mustahkamlash va bolalarni huquqiy, ijtimoiy jihatdan himoya qilish har qanday davlatning barqaror taraqqiyot strategiyasida muhim o‘rin tutadi. Chunki yoshlar — kelajak bunyodkorlari, oila esa jamiyat barqarorligining poydevori, bolalar esa davlatning ertangi kuni, uning istiqboli va kuch-qudratining asosiy ko‘rsatkichidir. Shu bois ham Konstitutsiyamizda ushbu masalalarga alohida bob ajratilishi bejiz emas. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, bolalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Oila kodeksi”ning qabul qilinishi, “Yoshlar

ittifoqi”ning faoliyati, “Mehribonlik uylari” va boshqa ijtimoiy muassasalarning tashkil etilishi, davlat tomonidan yoshlar bandligini ta’minlashga oid dasturlar ishlab chiqilishi Konstitutsiyada mustahkamlangan normalarning amalda hayotga tatbiq etilayotganidan dalolat beradi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiyada oila, bolalar va yoshlar huquqlarini himoya qilish normalari nafaqat huquqiy qoidalar, balki jamiyatning axloqiy va ma’naviy qadriyatlarini ham ifoda etadi. Oila qadimdan xalqimiz tafakkurida muqaddas dargoh sifatida talqin etilgan. Ota-onaga hurmat, bolaga mehr, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi qadriyatlar huquqiy darajaga ko‘tarilib, konstitutsiyaviy majburiyat sifatida mustahkamlanishi huquqiy davlat qurish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Masalan, voyaga yetgan farzandlarning ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini alohida norma sifatida belgilash O‘zbekiston huquqiy tizimining o‘ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida bu masala umumiy ko‘rinishda yoritilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda u aniq va bevosita majburiyat sifatida ifodalangan.

Shuningdek, Germaniya Asosiy qonunida nikoh va oila davlat muhofazasida bo‘lishi, ota-onalarning bolalarni tarbiyalash huquqi va majburiyati qayd etilgan. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida ham oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasida ekanligi mustahkamlangan. Fransiyada esa oila institutiga oid normalar ko‘proq inson huquqlariga oid umumiy tamoyillar doirasida talqin etiladi. AQSH Konstitutsiyasida bevosita oila va yoshlar huquqlari haqida normalar mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, sud amaliyotida oilaviy hayot daxlsizligi, tenglik, ta’lim olish huquqi keng himoya qilinadi. Bu qiyosiy tahlillar O‘zbekiston Konstitutsiyasining o‘ziga xos jihatini ko‘rsatadi: bizning asosiy qonunimiz oilani, yoshlarni va bolalarni alohida bob sifatida yoritadi va ularning huquqiy maqomini mustahkamlashga alohida e’tibor beradi.

Konstitutsiyaning XIV bobida oila, bolalar va yoshlar huquqlari alohida normativ tartibga solingan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos huquqiy mazmun va ijtimoiy

ahamiyatga ega. Avvalo, 76-moddada oilaning jamiyatdagi o‘rni, nikohning asoslari va davlatning oila oldidagi majburiyatlari mustahkamlangan. Ushbu norma bo‘yicha oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida tan olinadi va u jamiyat hamda davlat muhofazasida bo‘lishi belgilangan. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutidir, chunki insonning shaxsiyati, uning axloqiy, madaniy va ma’naviy qiyofasi avvalo oilada shakllanadi. O‘zbekiston xalqining an’anaviy qadriyatlariga ko‘ra, nikoh ixtiyoriy rozilikka, er va xotinning teng huquqliligiga asoslanadi. Bu normalar BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qoidalari bilan to‘la uyg‘unlikda bo‘lib, oila jamiyatning tabiiy asosiy bo‘g‘ini sifatida davlat tomonidan muhofaza qilinishi majburiyatini belgilaydi. Qiyosiy jihatdan qaraganda, Germaniya Asosiy Qonunining 6-moddasida ham nikoh va oilani davlat alohida muhofaza qilishi qayd etilgan, Rossiya Konstitutsiyasining 38-moddasi ham xuddi shu mazmunni o‘zida mujassam etadi. Fransiyada esa oilaga oid qoidalar ko‘proq inson huquqlari to‘g‘risidagi umumiy prinsiplar bilan chegaralanadi, AQSHda esa bunday normalar bevosita Konstitutsiyada emas, balki sud amaliyotida talqin qilinadi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi oilaga alohida bob ajratganligi bilan ko‘plab konstitutsiyalardan ustun turadi.

Shu nuqtai nazardan Konstitutsiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning majburiyatlari hamda davlatning yetim bolalar oldidagi majburiyatlari belgilangan. Unga ko‘ra, ota-onalar farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish, tarbiyalash, ta’lim olishini ta’minlash hamda ularning sog‘lom va har tomonlama kamol topishi haqida g‘amxo‘rlik qilishlari shart. Bu majburiyat oila institutining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, farzand tarbiyasi nafaqat axloqiy, balki huquqiy burch sifatida mustahkamlanadi. Shu bilan birga, davlat va jamiyat yetim bolalar, ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Bu normalar xalqaro miqyosda ham keng e’tirof etilgan

bo‘lib, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi 20-moddasida ota-onasiz qolgan bolalarni davlatning himoya qilishi majburiyati aniq belgilangan. Qiyosiy jihatdan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida ham bolalar haqida davlatning g‘amxo‘rligi mustahkamlangan. Germaniyada esa ota-onalarning farzandlarni tarbiyalash huquqi va majburiyati asosiy qonunda bevosita ko‘rsatilgan, ammo davlatning yetim bolalar haqidagi majburiyati ko‘proq qonunlar darajasida tartibga solinadi. O‘zbekistonda esa bu norma bevosita Konstitutsiyada mustahkamlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, 78-moddada farzandlarning tengligi, ularning ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan. Bu norma diskriminatsiyaning har qanday shaklini bartaraf etishga qaratilgan. Shuningdek, bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlatning majburiyati sifatida belgilangan. Onalik, otalik va bolalikning davlat muhofazasi ostida bo‘lishi esa jamiyatning insonparvarlik tamoyillarini amalda ta’minlashga xizmat qiladi. Bu norma xalqaro huquqda ham keng e’tirof etilgan bo‘lib, Xalqaro paktlarning deyarli barchasida bolalar huquqlarini teng asosda ta’minlash zarurligi qayd etiladi. Qiyosiy jihatdan Germaniya Asosiy Qonunining 3-moddasida ham barcha shaxslarning qonun oldida tengligi belgilangan bo‘lib, u bolalarga ham tatbiq qilinadi. AQSH Konstitutsiyasida esa tenglik to‘g‘ridan-to‘g‘ri bolalarga oid norma sifatida emas, balki umumiy tenglik prinsipidan kelib chiqib himoya qilinadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida esa bu masalaning alohida modda sifatida belgilanishi huquqiy jihatdan ustunlikni anglatadi.

Konstitutsiyamizning 79-moddasida yoshlarning huquqlari alohida mustahkamlangan bo‘lib, ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari himoya qilinishi davlatning bevosita majburiyati sifatida qayd etilgan. Davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini

rag‘batlantiradi, ularning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash, uy-joyga ega bo‘lish, ishga joylashish, bandlik va dam olish huquqlarini kafolatlaydi. Bu norma yoshlarning huquqlarini konstitutsiyaviy darajada keng ko‘lamda mustahkamlash jihatidan juda muhim. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, BMTning Yoshlar siyosati to‘g‘risidagi deklaratsiyasida ham yoshlarning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi lozimligi belgilangan. Qiyosiy jihatdan, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida yoshlarning huquqlari umumiy ko‘rinishda belgilangan bo‘lsa, Germaniyada ham yoshlar masalasi ko‘proq qonun darajasida tartibga solinadi. AQSHda esa yoshlarning huquqlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Konstitutsiyada emas, balki ta’lim va ijtimoiy siyosatga oid qonunlar orqali kafolatlanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Konstitutsiyasida yoshlar huquqlarining aniq va keng ko‘lamda kafolatlanishi milliy huquq tizimining yuksak darajasini ko‘rsatadi.

Davlatimiz qomusi bo‘lmish Konstitutsiyamizning 80-moddasida esa voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onaga g‘amxo‘rlik qilish majburiyati belgilangan. Bu norma o‘zbek xalqining qadimiy an’analariga tayanib, ota-onaga hurmat va ehtiromni huquqiy darajaga ko‘taradi. Qiyosiy jihatdan Rossiya Konstitutsiyasida ham shunga o‘xshash norma mavjud bo‘lib, farzandlarning ota-onaga g‘amxo‘rlik qilishi majburiy ekani belgilangan. Germaniya va Fransiya konstitutsiyalarida esa bu masala bevosita ko‘rsatilmagan, u ko‘proq axloqiy va oilaviy qadriyat sifatida talqin qilinadi. AQSHda ham bu masala sud amaliyoti va fuqarolik jamiyati tamoyillariga asoslanadi, ammo huquqiy majburiyat sifatida bevosita Konstitutsiyada belgilanmagan. Shu sababli, O‘zbekiston Konstitutsiyasida ushbu normalarning mavjudligi milliy huquqiy tafakkurning o‘ziga xosligini va oilaga beriladigan yuksak qadriyatni ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston,

2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2008.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2016.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – 2022 yil 28 yanvar.

6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT Bosh Assambleyasi, 1948 yil.

7. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. – BMT, 1989 yil.

8. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. – BMT, 1966 yil.

9. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi. – Moskva, 2020.

10. Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonuni. – Berlin, 2019.

11. AQSh Konstitutsiyasi. – Vashington, 1787 (oxirgi tuzatmalar bilan).

12. Saidov A.X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar sharhi. – Toshkent: TDYuI, 2018.

13. Jo‘rayev Q., Saidov A. Konstitutsiyaviy huquq. – Toshkent: TDYuI, 2021.

14. Rahmonqulov X., Qahhorov R. Oila huquqi. – Toshkent: Adolat, 2020.

15. Sultonova D. O‘zbekistonda bolalar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlari. – “Huquq” jurnali, 2021, №3.